



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

SHHT VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI O'RTASIDAGI TARIXIY HAMKORLIK O'razova Muxlisa Alisher qizi

Namangan davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganidan so'ng, mintaqada yangi geosiyosiy vaziyat, xavfsizlik muammolari, chegaralar masalasi, iqtisodiy o'tish davri qiyinchiliklari, tashqi siyosiy integratsiya ehtiyojlari davlatlarni regional hamkorlik asosida tashkil topgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) va uning Markaziy Osiyo davlatlari uchun xavfsizlik, balki iqtisod, transport, energetika, madaniyat va diplomatik hamkorlik tashkilotiga aylanganligi to'g'risida so'z yuritilgan..

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, mintaqaviy hamkorlik, ShHT, ASEAN, MDH, KXSHT, YEAEES, SVMMDA, OES, barqarorlik, chegara.

ИСТОРИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО МЕЖДУ ШОС И ГОСУДАРСТВАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Уразова Мухлиса Алишер кизи

Наманганский государственный университет, магистрантка

Аннотация

В этой статье рассказывается о новой геополитической ситуации в регионе после обретения странами Центральной Азии независимости, проблемах безопасности, вопросах границ, трудностях экономического перехода, потребностях во внешнеполитической интеграции государств, созданных на основе региональной Шанхайская организация сотрудничества (ШОС) и ее безопасность для государств Центральной Азии, а также вопросы экономики, транспорта, энергетики, культуры и было упомянуто, что он стал организацией дипломатического сотрудничества.

Ключевые слова: Центральная Азия, региональное сотрудничество, ШОС, АСЕАН, СНГ, ОДКБ, ЕАЭС, СВМДА, ОЭС, стабильность, граница.

HISTORICAL COOPERATION BETWEEN THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION (SCO) AND THE CENTRAL ASIAN STATES

O'razova Muxlisa Alisher qizi

Namangan State University, Master's Student

Abstract

This article describes the new geopolitical situation in the region after the Central Asian countries gained independence, security issues, border issues, difficulties of economic transition, the needs for foreign policy integration of the states created on the basis of the regional Shanghai Cooperation Organization (SCO) and its security for the Central Asian states, as well as issues of economics, transport, energy, culture, and it was mentioned that it has become an organization of diplomatic cooperation.

Keywords: Central Asia, regional cooperation, SCO, ASEAN, CIS, CSTO, EAEU, CICA, ECO, stability, border.

Markaziy Osiyo hududi qadimdan Sharq va G'arbni bog'lovchi strategik mintaqaga bo'lib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning markazida turgan. Mustaqillikdan so'ng mintaqada davlatlari o'zaro integratsiya, xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichda yo'lga qo'yishga intildi. Ushbu jarayonda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) Markaziy Osiyo uchun eng muhim mintaqaviy tashkilotlardan biriga aylandi. Tashkilotning shakllanishi, rivojlanishi va bugungi kundagi faoliyati Markaziy Osiyo taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganidan so'ng mintaqada yangi geosiyosiy vaziyatga yuz tutdi. Xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot, transchegaraviy tahdidlar va integratsiya jarayonlari mintaqada davlatlarini qo'shni mamlakatlar hamda yirik davlatlar bilan hamkorlik tizimini yaratishga undadi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) ana shu ehtiyojlar asosida shakllanib, bugungi kunda Markaziy Osiyo uchun eng muhim mintaqaviy tashkilotlardan biriga aylangan.

Asosiy qism

Muhim xalqaro tashkilotlardan biri bo'lgan SHHTning ildizlari 1996-yilda "Shanxay beshligi" formatining yaratilishiga borib taqaladi. O'sha davrda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida chegara xavfsizligini mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish hamda chegara hududlarida ishonch choralari kuchaytirish bo'yicha kelishuvlar imzolandi.

Natijada "Shanxay beshligi" platformasi tashkil etildi. Ushbu hamkorlikning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- chegaraoldi hududlaridagi harbiy kuchlarni qisqartirish;
- qo'shma xavfsizlik mexanizmlarini ishlab chiqish;
- o'zaro siyosiy ishonchni mustahkamlash;
- chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish.

"Shanxay beshligi"ning muvaffaqiyati mintaqada yanada kengroq hamkorlik tashkilotiga ehtiyoj mavjudligini namoyon qildi [2].

Shuningdek, tashkilotning 2000-yilda Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan sammitida O'zbekiston kuzatuvchi davlat sifatida qatnashdi. O'zbekiston o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqib hamda Markaziy Osiyodagi harbiy-siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda 2001-yil 15-iyun kuni tashkilotga a'zo bo'ldi. Shundan so'ng tashkilot nomi "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti" deb o'zgartirildi.

2001-yilda O'zbekistonning qo'shilishi bilan SHHT to'laqonli xalqaro tashkilotga aylandi. Bu bosqichda:

- hamkorlik doirasi kengaydi;
- iqtisodiy, madaniy va siyosiy integratsiya masalalari kun tartibiga kiritildi;
- terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilandi.

Tashkilotda Xitoy va Rossiya yirik geosiyosiy o'yinchilar sifatida ishtirok etishi SHHTning global siyosiy maydondagi ahamiyatini oshirdi. SHHTning tuzilishi Markaziy Osiyo geosiyosatida tub burilish yasadi, chunki mintaqa davlatlari birinchi bor yirik iqtisodiy va harbiy kuchlar bilan teng maqomda muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldi [3].

Bugungi kunda SHHT dunyodagi eng yirik mintaqaviy tashkilotlardan biri hisoblanadi. Unga a'zo mamlakatlarning umumiy hududi 34 million kvadrat kilometrdan oshadi. Bu Yevrosiyo qit'asi hududining 60 foizdan ortig'ini tashkil etadi. SHHT mamlakatlarining umumiy aholisi 3,2 milliard kishini tashkil etadi, bu esa dunyo aholisining qariyb yarmidir.

Tashkilot 10 ta doimiy a'zo davlatni, 2 ta kuzatuvchi davlatni va 14 ta muloqot bo'yicha sherik davlatni o'z atrofiga birlashtirgan.

26 mamlakatdan iborat "SHHTning katta oilasi" uch qit'ani — Osiyo, Yevropa va Afrikani qamrab olgan. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlarning ushbu tuzilma bilan turli formatlarda hamkorlik qilishga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda.

BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari, ASEAN, MDH, KXSHT, YEOII (Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi), SVMDA hamda OES kabi hamkor tashkilotlar tarmog'ining izchil kengayib borayotgani SHHTning xalqaro obro'-e'tiborini oshirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi paytda Arab davlatlari ligasi va boshqa qator ko'p tomonlama tuzilmalar bilan aloqalar yo'lga qo'yilmoqda.

Bugungi kunda SHHT makoni ulkan xomashyo zaxiralari, ishlab chiqarish quvvatlari, malakali ishchi kuchi va inson kapitali hamda texnologik salohiyat mavjudligi nuqtai nazaridan o'zini o'zi ta'minlaydigan mintaqaga hisoblanadi [1].

SHHTga a'zo davlatlar iqtisodiyotining umumiy hajmi qariyb 20 trillion AQSH dollarini tashkil etadi, bu esa tashkilot tuzilgan paytdagiga nisbatan 13 barobar ko'pdir. Tashkilot makoni dunyodagi eng yirik iste'mol bozorlaridan birini anglatadi. Bugungi kunda SHHT a'zolarining umumiy yalpi ichki mahsuloti jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb chorak qismini tashkil etadi. Mutaxassislarning prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib bu ko'rsatkich jahon yalpi ichki mahsulotining 35–40 foizigacha yetishi mumkin.

SHHT o'zining amaliy tatbiqini kutayotgan ulkan transport va tranzit salohiyatiga ega. Global ta'minot zanjirlarini diversifikatsiya qilish sharoitida Yevrosiyoda Sharq–G'arb va Shimol–Janub yo'nalishlari bo'yicha yangi xalqaro temir yo'l va avtomobil yo'laklarini yaratish mohiyatan strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni unutmaslik joizki, SHHT sivilizatsiyalararo muloqot va madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlash uchun istiqbolli platforma hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning dolzarbligi, ayniqsa, dunyoda

ishonchsizlik va antagonistik kayfiyatlarning kuchayib borayotgani sharoitida yanada ortmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari SHHTning geostrategik markazini tashkil qiladi. Mintaqa nafaqat geografik jihatdan, balki xavfsizlik, energetika, suv resurslari va transport koridorlari nuqtai nazaridan ham tashkilotning ustuvor hududi hisoblanadi.

SHHTning Markaziy Osiyoni barqarorlashtirish siyosati mintaqadagi xavfsizlik tizimini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

SHHTning eng muhim yoʻnalishlaridan biri — mintaqaviy xavfsizlikdir. Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash tashkilotning asosiy tamoyillaridan biridir. 2001-yildagi “Uch yovuz kuch”ga qarshi kurashish konvensiyasi bu borada muhim hujjat boʻlib xizmat qiladi.

Shuningdek, 2004-yilda SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (RATS) tashkil etildi. Uning shtab-kvartirasi Toshkent shahrida joylashgan boʻlib, bu Oʻzbekistonning tashkilotdagi oʻrni mustahkam ekanligidan dalolat beradi.

SHHT dastlab xavfsizlikka yoʻnaltirilgan boʻlsa-da, 2010-yillardan boshlab iqtisodiy hamkorlik ustuvor yoʻnalishlardan biriga aylandi. Xitoyning “Bir kamar, bir yoʻl” tashabbusi bu jarayonning tezlashishiga sabab boʻldi.

SHHT doirasida:

- savdo hajmlari oshmoqda;
- qoʻshma transport loyihalari amalga oshirilmoqda;
- energetika sohasida integratsiya kuchaymoqda;
- transport-logistika markazlari barpo etilmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun SHHT Yevrosiyo iqtisodiy makoniga integratsiyalashuvning asosiy kanallaridan biridir.

SHHT faqat siyosiy va iqtisodiy tashkilot emas, balki madaniy-gumanitar hamkorlik markazi hamdir. 2007-yildan boshlab SHHT doirasida madaniyat festivallari, yoshlar forumlari va taʼlim almashinuvi loyihalari yoʻlga qoʻyildi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan Xitoy va Rossiya oʻrtasida madaniy almashinuvlar kuchayib, oliy taʼlim, ilmiy izlanishlar va tarixiy merosni oʻrganish boʻyicha bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda.

Markaziy Osiyo hududi Yevrosiyo transport-kommunikatsiya tizimining markazida joylashgan. Shu bois SHHT doirasida transport integratsiyasi eng muhim yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

Bu loyihalar mintaqaning jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tashkilotning eng katta yutugʻi — mintaqada barqarorlikning saqlanishiga hissa qoʻshishi hisoblanadi. SHHT chegara mojarolarining oldini olishda, siyosiy dialogni yoʻlga qoʻyishda, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda hamda harbiy-huquqiy hamkorlikni rivojlantirishda katta rol oʻynaydi.

Bugungi kunda tashkilotga rasman aʼzo davlatlar: Xitoy, Rossiya, Hindiston, Pokiston (yadroviy davlatlar maqomiga ega), Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston (Markaziy Osiyo davlatlari), Eron va Belarus Respublikasi hisoblanadi. Kuzatuvchi maqomidagi davlatlar esa Afgʻoniston va Moʻgʻulistondir.

Bundan tashqari, tashkilotning 14 ta muloqot boʻyicha hamkor davlati ham mavjud. Bular: Shri-Lanka, Turkiya, Armaniston, Ozarbayjon, Kambodja, Nepal, Misr, Qatar, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Moldaviya, Myanma, Birlashgan Arab Amirliklari va Bahrayn davlatlaridir [4].

Shuningdek, SHHTning xalqaro tashkilot sifatidagi jozibadorligi uning faoliyati asosini tashkil etayotgan quyidagi tamoyillarda namoyon boʻlmoqda: Shanxay Hamkorlik Tashkilotining turli bloklardan xoli maqomga ega ekanligi, ochiqlik, uchinchi mamlakatlar yoki xalqaro tashkilotlarga qarshi qaratilmaganligi, barcha ishtirokchi tomonlarning tengligi va suverenitetini hurmat qilish, ichki ishlarga aralashmaslik, siyosiy qarama-qarshilik va ixtilofli raqobatga yoʻl qoʻymaslik, shuningdek, oʻzaro ishonch va manfaat, birgalikda rivojlanishga intilish hamda madaniyatlar xilma-xilligiga hurmat kabi tamoyillarning ustuvorligidir [5].

Xulosa

SHHT va Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi tarixiy hamkorlik bugungi kunda mintaqa barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim geosiyosiy omilga aylandi. Tashkilotning koʻp qirrali faoliyati Markaziy Osiyoning global integratsiyasiga, xavfsizligi va iqtisodiy rivojiga xizmat qilmoqda [6]. Shanxay hamkorlik tashkiloti dunyodagi eng yirik mintaqaviy tashkilotlardan biri hisoblanadi. SHHT toʻlaqonli xalqaro tashkilotga, mintaqaviy hamkorlik va savdo-iqtisodiy aloqalar boʻyicha nufuzli markazga, Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish va xavfsizlikning kafolatiga aylandi. Mamlakatimiz taraqqiyotida SHHTning oʻrni va salohiyati juda katta boʻlib, bu tashkilotga aʼzo davlatlar teng huquqqa ega hamda

o‘zaro hamjihatlik va do‘stlik poydevori ustiga qurilgan munosabatlar asosida faoliyat yuritadi. Shu bois tashkilot faoliyatidan a‘zo davlatlarning har biri manfaatdordir. Tashkilot hozirda nafaqat xavfsizlik, balki ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sotiq, transport-kommunikatsiya, investitsiya va gumanitar masalalarga ham jiddiy e‘tibor qaratmoqda. Bu holat tashkilotning ochiqligi, barcha manfaatdor davlatlar va xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. ShHT rasmiy hujjatlari to‘plami. – Pekin, 2001–2023.
2. “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi bo‘yicha xalqaro hisobotlar. – Xitoy Xalq Respublikasi, 2015–2024.
3. Ziyoyev Q. Markaziy Osiyo geosiyosati va ShHT. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2020.
4. Member States of the Shanghai Cooperation Organisation. URL: https://en.m.wikipedia.org/wiki/Member_states_of_the_Shanghai_Cooperation_Organisation
5. Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o‘zaro bog‘liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik. – 12-sentabr 2022-yil. URL: <https://xs.uz/uz/post/shankhaj-hamkorlik-tashkilotining-samarqand-sammiti-ozaro-bogliqlikdagi-dunyoda-muloqot-va-hamkorlik>
6. Entina E., Morozova N. The SCO and Eurasian Geopolitics. – Moscow, 2019.
7. RATS ShHT yillik hisobotlari. – Toshkent, 2004–2024.
8. Soederbaum F. Early, Old, New and Comparative Regionalism: The Scholarly Development of the Field. – No. 64, October 2015. URL: https://www.polsoz.fu-berlin.de/en/v/transformeurope/publications/working_paper/wp/wp64/WP-64-Soederbaum.pdf
9. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi: milliy istiqlol davri. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – B. 276.
10. To‘xliyev N., Haqberdiyev Q. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 87.